

Xo‘jamuratova Xadicha Baxtibay qizi

Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika(logopediya)yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annatsiya: Ushbu maqolada aqli zaif bolalar tafakkur xususiyatlari, xulq atvori, o‘qish va o‘rganish jarayonlari, intellektual qobiliyatining o‘ziga xosligi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kongnitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, tafakkur konkrentligi, abstrakt fikrlash.

**CHARACTERISTICS OF THINKING IN CHILDREN WITH INTELLECTUAL
DISABILITIES AND CORRECTIONAL GAMES**

Xojamuratova Khadicha Baxtibay qizi

Alfraganus University Faculty of Pedagogy Special Pedagogy (Speech Therapy) Department
2nd-year Student

Abstract: This article provides information on the characteristics of thinking, behavior, learning processes, and the uniqueness of intellectual abilities in children with intellectual disabilities.

Keywords: Cognitive development, emotional development, concreteness of thinking, abstract thinking.

Aqli zaif bolalar - bu, psixologik rivojlanishida qiyinchiliklarga duch kelgan va umumiy intellektual qobiliyatlari normadan past bo‘lgan bolalardir. Ularning tafakkur jarayoni va o‘rganish qobiliyatlari hamda muammolarga yondashish tarzlarini sog‘lom rivojlanayotgan bolalarga qaraganda farq qiladi. Bu maqolada, aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlari haqida gapirishni maqsad qilganmiz.

Kognitiv rivojlanishning sekinlashuvi: Aqli zaif bolalarning tafakkuri ko‘pincha sekin rivojlanadi. Ularning o‘rganish jarayoni boshqa bolalarga nisbatan ko‘proq vaqt talab qiladi. Bu, ularda tasavvur va fikrlash jarayonlarining rivojlanishi, masalan, mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, va taqqoslash kabi ko‘nikmalarning sekin shakllanishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar ko‘pincha asosiy kognitiv qobiliyatlarida muammolarga ega bo‘lishadi. Masalan, ular mantiqiy va matematik masalalarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuningdek, til o‘rganish, so‘z boyligi va kommunikativ qobiliyatlar ham sekin rivojlanadi, va yana aqli zaif bolalar hayoti davomida diqqat va xotira bilan bog‘liq muammolarga ham duch keladilar. Aqli zaif bolalarning diqqat va xotira bilan bog‘liq muammolari ko‘p uchraydi. Ular bir vaqtning o‘zida bir nechta ishni bajarish yoki diqqatni uzoq vaqt davomida bir narsaga jamlashda qiynalishadi. Xotiralarini saqlash va eslab qolish qobiliyati ham o‘zgacha bo‘lishi mumkin.

Aqli zaif bolalar emotsional va ijtimoiy rivojlanishdagi kechikish. Aqli zaif bolalar, emotsional va ijtimoiy rivojlanishda ham ba‘zi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular ko‘pincha boshqa bolalar bilan munosabatlar o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, shuningdek, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda ham qiynalishadi. Ijtimoiy vaziyatlarga moslashish va bunday vaziyatlarda to‘g‘ri xulq-atvorni namoyon etish ko‘proq vaqt talab qiladi.

Aqli zaif bolalarda mustahkamlash va rag‘batlantirishning ro‘li katta. Aqli zaif bolalar o‘rganish jarayonida doimiy mustahkamlash va rag‘batlantirishga muhtoj. Ularning motivatsiyasi ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun ular o‘rganish jarayonida ijobiy fikr va

rag'batlantirishlarni sezishlari muhimdir. Ularning muvaffaqiyatlari kichik bo'lsa-da, ijobiy motivatsiyani oshirish uchun rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalarning tafakkuri ko'pincha konkret va amaliy holatlarda ko'proq rivojlanadi. Abstrakt fikrlash, umumlashtirish va nazariy tushunchalar ularni osonlikcha qiyinlashtiradi. Shu sababli, ular ko'proq konkret, oddiy va amaliy ma'lumotlarga asoslangan o'rganish jarayonlarini samarali qabul qilishadi. Aqli zaif bolalar ko'pincha o'zlarini o'rgatishda va yangi ko'nikmalarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, lekin ularning ko'p hollarda bu qiyinchiliklarga bardosh berish va sabr-toqat qilish imkoniyatlari ham mavjud. Ularda ba'zan jismoniy va psixologik qo'llab-quvvatlash orqali o'rganish jarayonlarini yaxshilash mumkin bo'ladi.

Aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlarini rivojlantiruvchi maxsus korreksion o'yinlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

1. "Ortig'ini top" o'yini

Maqsad: Tahlil va sintez qilish ko'nikmasini shakllantirish, mantiqiy Materiallar: Rasmlar to'plami (masalan, mevalar, hayvonlar, transport vositalari).

O'yin sharti: Bolaga 4 ta rasm ko'rsatiladi, shulardan 3 tasi bir xil guruhga tegishli, biri esa ortiqcha bo'ladi. Bola ortiqcha rasmini topishi va nima uchun bunday deb hisoblaganini tushuntirishi kerak.

Misol: 3 ta meva (olma, nok, uzum) va 1 ta hayvon (mushuk) beriladi. Bola mushukni ortiqcha deb aytishi kerak.



2. "Teskari mantiq" o'yini

Maqsad: Mantiqiy tafakkurni shakllantirish va teskari fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.


O'yin sharti: O'qituvchi yoki tarbiyachi bir jumla aytadi, bola esa bu jumlaning teskari ma'noda aytishi kerak.

O'qituvchi: "Quyov tez yuguradi".

Bola: "Quyov sekin yuguradi".

O'qituvchi: "Qor oq rangda".

Bola: "Qor qora rangda" (bu yerda bolaning xatosi aniqlanadi va to'g'ri tushuntiriladi).



3. "Qaysi biri kimniki?" o'yini

Maqsad: Tafakkur va xotira jarayonlarini rivojlantirish.

Materiallar: Turli kasblarga tegishli buyumlarning rasmlari (masalan, shifokor – stetoskop, quruvchi – bolg'a, oshpaz – qoshiq).

O'yin sharti: Bolaga turli buyumlar rasmlari ko'rsatiladi. U buyumning kimga tegishli ekanini topishi kerak.

Misol:Shifokorga stetoskop, quruvchiga bolg'a, oshpazga qoshiq mos keladi.



4. "To'g'ri- noto'g'ri" o'yini

Maqsad: Bolaning analiz va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yin sharti:O'qituvchi turli gaplarni aytadi, bola esa "To'g'ri" yoki "Noto'g'ri" deb javob beradi.

Misol:"Quyov sabzi yeydi" → To'g'ri

"Baliq daraxtda yashaydi" → Noto'g'ri

"Yozda qor yog'adi" → Noto'g'ri

5. "Rasm bo'yicha hikoya tuz" o'yini

Maqsad: Tafakkur va mantiqiy bog'liqlikni tushunish qobiliyatini oshirish.

Materiallar: Tasvirlangan ketma-ketlikdagi rasmlar (masalan, bola daraxt ekmoqda, unga suv quyayapti, daraxt o'sayapti).

O'yin sharti: Bolaga 3-4 ta rasm beriladi. U rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirib, ular bo'yicha hikoya tuzishi kerak.

Ushbu o'yinlar aqli zaif bolalarning tafakkurini rivojlantirishga, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishga va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishga yordam beradi. O'yinlar bola yoshiga va imkoniyatlariga qarab moslashtirilishi, qiziqarli va interaktiv shaklda o'tkazilishi kerak.

Xulosa: Aqli zaif bolalar tafakkurining xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, ularning o'rganish jarayoni va intellektual qobiliyatlari o'ziga xosdir. Ular uchun individual yondashuv va doimiy rag'batlantirish, o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir bolaga uning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim berish, uning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.

Adabiyotlar: 1. Maxsus pedagogika P.M.Po'latova G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2005 21-26 bet

3 Maxsus psixologiya L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova 0 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2013 105-107 bet

4. Isayeva M., Karimova Z.(2024). Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni bilan olib boriladigan korreksion – logopedik ish tizimi. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 3(30), 545-548

5. Z.A.Karimova / Inclusive education and its importance and characteristics / Maxsus pedagogika muammo va yechimlar/ 2023, 1-1, 160-162 p

6. ZA Karimova, XA Saydaliyeva, Aqliy zaifligi bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish / Inter education & global study/ 1 (1), ctp.111-119, 2025r

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

6. Zulfiya Karimova, Editorial Problems of Organizing the Innovative Activity of Preschool Education Organization Editors Under Educational Cluster Conditions. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 1-10.
<https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/97>

7. BD Khusinbaevna, Z Karimova - THEORETICAL-METHODOLOGICAL AND PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF STUTTERING, FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2024, 171-177p

